



MODERNISTIK NASRDA RAMZ VA OBRAZ TALQINI. (NAZAR ESHONQULNING “SHAMOLNI TUTIB BO’LMAYDI” HIKOYASI ASOSIDA)

Shaymuratova Umida

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy
pedagogika universiteti Filologiya fakulteti 4-
bosqich talabasi
e-mail: shaymuratovaumida@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli adib Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo‘lmaydi" hikoyasi modernistik adabiyot tamoyillari asosida tahlil qilingan. Maqolada asarning badiiy to‘qimasidagi ramzlar (uy, sandiq, barmoqlar, yaktak) va obrazlar evolyutsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik tadqiq etiladi. Muallif hikoya markazida turgan Bayna momo obrazini matonat, sadoqat va asriy nafrat timsoli sifatida talqin qiladi. Shuningdek modernizm tushunchasiga haqida ham ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Nazar Eshonqul, modern, modernistik adabiyot, ramz, obraz, timsol, obrazlar evolyutsiyasi, hikoya.

KIRISH

Modernizm (italyancha modernismo – „zamonaviy oqim“; lotinchadan kelib chiqqan modernus – „zamonaviy, yangi“) XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning 50—60-yillarida Yevropa, AQSH adabiyoti va san’atida rivoj topgan oqim va yo‘nalishlarning umumiy nomi. Dastlab, Fransiyada tashkil topgan simbolizm, akmeizm, impressionizm (masalan, 1863 -yilda Parijda ochilgan „Xo‘rlanganlar saloni“) vakillari, musiqada K. Debyussi, M.Ravel kabi kompozitorlar ijodiga nisbatan qo‘llangan. Badiiy ijodning mumtoz an’analaridan voz kechish, ijodkor o‘z shaxsiy kechinma, taassurot va tasavvurlarini ustun qo‘yishi, badiiy shakllarni yangilash jarayoniga alohida ahamiyat berish ular ijodiga xos bo‘lgan xususiyatlardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda modern adabiyot, modernistik ruh, modernizm kabi bir qator iboralarga duch kelamiz. Shuningdek bugungi davr adabiyotini modernizmsiz tasavvur qilish mumkin emas. Keling tahlilni boshlashdan avval “modernizm nima?” degana savolga javob topaylik.

Modernizm – falsafa, san’at va adabiyot sohasidagi noklassik qarashlar tizimini umumlashtiruvchi atama. Kunbotish mamlakatlarida 19 asrning so‘nggi choragida yuzaga kelgan va frantsuzcha “eng yangi”, “zamonaviy” ma’nolarini anglatuvchi modernizm o‘zini o‘sha zamon hamda kelajakdagi yagona haqiqiy estetik va falsafiy yo‘nalish hisoblab, olamni falsafiy hamda badiiy idrok etish, izohlash va tasvirlash borasida mavjud bo‘lgan an’anaviy yondashuvlarni inkor qilishi bilan ajralib turadi.

Modernizm olam hodisalari va odamga munosabat, ulardagi turli-tuman holatlarni izohlash hamda tasvirlashda o'ziga xoslikka intilib, klassik yondashuv yo'sinini inkor etish yo'lidan borgan g'oyat ko'p tarmoqli falsafiy-estetik hodisadir.

Munaqqid Qozoqboy Yo'ldoshev modernizmga shundat ta'rif beradi: "Modernizm klassik falsafadagi san'atga real voqelikning in'ikosi tarzida qarashdan voz kechib, borliqqa qat'iy bog'lanib qolish san'atkorni cheklab qo'yadi, u o'z o'yu xayollari bilan voqelikdan tashqarida turganida ko'proq ijodiy imkoniyatga ega bo'ladi deb qaraydi. Realistik nazariya san'atning yagona ob'ekti borliq deb bilgani sababli ham undan yuz o'girish kerak deb hisoblaydi. San'at borliqning nusxasi emas, balki uning o'zi alohida mustaqil borliq deb biladi. Modernistik adabiyot va san'atning barcha yo'nalishlarda yaratilgan asarlarda unga qadar qo'llanib kelingan an'anaviy badiiy vosita va usullar yo butunlay inkor qilinadi, yoxud ulardan tanib bo'lmaydigan darajada o'zgartirilgan holda foydalaniladi."¹

NATIJAR VA MUHOKAMA

Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi o'zbek modern nasrining cho'qqilaridan biri bo'lib, u voqeabandlikdan ko'ra ruhiy qatlamlarning murakkabligiga, bayonchilikdan ko'ra ramzlar tiliga asoslangani bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada asarning modernistik tabiatini, undagi obrazlar evolyutsiyasini va muallif qo'llagan daxshatli, ammo teran ramzlarni tahlil qilamiz.

Nazar Eshonqul ushbu asarida inson ruhiyatining eng qorong'u va teran qatlamlarini yoritib berar ekan, modernistik adabiyotning asosiy tamoyili — tashqi dunyoni qahramonning ichki kechinmalariga bo'ysundirish usulidan mahorat bilan foydalanadi. Hikoya boshlanishidagi qadim qo'rg'onni eslatuvchi Bayna momoning uyining buzilishi — bu shunchaki eski bir imoratning yo'q qilinishi emas, balki bir davrning, bir butun oriyatli o'tmishning yangi dunyo "tishlari" ostida qolishidir. Adib bu jarayonni "xuddi unutilishga va yo'q qilishga mahkum etilgan xotiradek" deb ta'riflarkan, jamiyatning o'z o'tmishidan, o'zining haqiqiy qiyofasidan va milliy ildizlaridan voz kechayotganiga ishora qiladi.

Asarning markaziy obrazi bo'lgan Bayna momo — sukut va matonatning tirik timsoliga aylangan. U ellik yil davomida Rayim polvondan qolgan eski ayvonda, bir paytlar eri va o'g'lining qoni to'kilgan ustunga suyanib yashadi. Bu ustun momo uchun shunchaki yog'och emas, balki qulagan hayotining tayanchi, o'tmish bilan bog'lab turuvchi yagona ip edi. "Yillar silsilasiga dosh berolmay puturdan ketayotgan uyni butkul vayron bo'lishdan asrab qolmoqchidek, elkasini ustunga suyagan holatda xotirasining siniq parchalariga tikilib"² yashagan bu ayolning qiyofasida butun boshli chorasiz qolgan, ammo mag'lub bo'lmagan milliy g'urur bo'y ko'rsatadi. Uning atrofidagi dunyo o'zgarda, odamlar aeroplanlar, yangi zamon ravoqlari haqida gapira boshladi, biroq momo uchun vaqt o'sha mudhish qotillik yuz bergan oqshomda qotib qoldi. Buni adib "u yerda vaqt o'sha holicha qotib qolganday" deya izohlaydi, bu esa qahramonning statik holati uning ichki dinamikasi naqadar shiddatli ekanidan dalolatdir.

¹ Qozoqboy Yo'ldosh. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar. Maqola "Yoshlik" jurnali, 2014 yil, 9-son

² Nazar Eshonqul. Maymun yetaklagan odam – T; Yangi nashr, 2019

Hikoyadagi eng kuchli ijtimoiy va psixologik ramzlardan biri — bu "erkaksiz qishloq" tushunchasidir. Bayna momo o'zining "Bu qishloqda erkak yo'q" degan keskin xulosasi bilan butun Tersota qishlog'ini ma'naviy o'limga mahkum etadi. Bu xulosa shunchaki achchiq ustidan aytilgan gap emas, balki fojiviy haqiqatdir. Rayim polvonday mardni, uning hali sabza urgan mo'ylovi titrab turgan navqiron o'g'lini o'z malayi Zamon otboqar ixtiyoriga topshirib qo'ygan, derazalari qora parda bilan yopilgan qishloq ahlining qo'rqqoligi momo uchun o'limdan ham dahshatliroq edi. "Zulmatga cho'kkan tuynuklar bu misli ko'rilmagan qotillikni jimgina tomosha qilib turardi" degan tasvir orqali muallif loqaydlikning naqadar mudhish ekanini ko'rsatib beradi. Bayna momoning butun hayoti mana shu loqaydlikka qarshi isyon edi. U qishloqdagilarning yuziga qarab, ularning ma'naviy xezalakligini ochiq-oydin masxara qilar ekan, aslida o'zining yolg'izligini yanada mustahkamlab bordi va o'zini daxlsiz bir saltanatning egasidek tutdi.

Modernistik nasrning eng cho'qqisi va asarning kulminatsion nuqtasi sifatida yakuniy sandiq detali maydonga chiqadi. Bayna momoning ellik yil davomida ochilmagan, ichida o'limlik kiyimlari, kelinlik buyumlari va muqaddas Qur'on saqlangan sandig'i — bu uning sirlar saltanati edi. Sandiqdan topilgan "kaptarning yuragidek kichkina, matosi zar sim bilan tikilgan, ko'p yillik qon qotib qolgan tumor va tig'i zanglagan qaychi" yonidagi o'nta odam barmog'i o'quvchini larzaga soladi. Bu — kutilmagan va absurd tuyulgan, ammo badiiy mantiqan mukammal intiqomning ramzi edi. Zamon otboqarning barmoqsiz jasadi va bu barmoqlarning momoning eng aziz ashyolari orasidan chiqishi — Bayna momoning "erkaksiz qishloq"da yagona haqiqiy "erkak" va mard inson bo'lib yashaganini, adolatni hech kimdan kutmay, o'z qo'li bilan o'rnatganini isbotlaydi.

U barmoqlarni Qur'on bilan bitta joyda saqlashi — uning nazarida bu qasos nafaqat shaxsiy intiqom, balki muqaddas bir diniy-axloqiy burch, ya'ni yovuzlikni jazolash ekanligidan dalolat beradi.

Sarlavhadagi "Shamolni tutib bo'lmaydi" iborasi asarning umumiy falsafiy-estetik konsepsiyasini belgilab beradi. Shamol — bu to'xtovsiz o'tib borayotgan vaqt, o'zgaruvchan siyosiy tuzumlar, yangi avlodlarning gumashta qarashlari va odamlarning o'zgaruvchan tabiati. Shamolni jismonan tutib bo'lmagani kabi, inson xotirasini, uning qalbida saqlagan sadoqatini ham hech qanday buldozer yoki yangi "zamon" o'chirib yubora olmaydi. Nazar Eshonqul ushbu asarida obrazlar va ramzlar orqali shuni ko'rsatadiki, haqiqiy matonat balandparvoz gaplarda emas, balki sukut ichida pishib yetiladi. Bayna momo o'zining yarim asrlik sukuti bilan shamolni — ya'ni vaqtning hamma narsani yuvib ketuvchi oqimini to'xtatib qoldi va o'limidan so'nggina butun Tersotaga o'zining g'alabasini — o'sha o'nta qonli barmoqni ko'rsatib ketdi.

Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqulning ushbu hikoyasi inson irodasining vaqt va ijtimoiy tuzumlar ustidan qozongan g'alabasidir. Adib modernistik uslubning ramzlar tili orqali milliy fojiani shaxsiy qismat darajasiga ko'chiradi. Bayna momo obrazi — bu shunchaki bitta jabrdiyda ayol emas, balki g'ururi toptalgan, ammo bukilmagan xalqning vijdoni va matonatidir. Sandiqdagi o'nta barmoq esa kechikkan bo'lsa-da, haqiqatning muqarrar ekanligiga va yovuzlik baribir jazo topishiga ishoradir. Asar o'quvchini loqaydlik naqadar mudhish ekanligi va oriyat o'lgan joyda

insonlikning o‘zi ham zavol topishi haqida jiddiy ogohlantiradi. "Shamolni tutib bo‘lmaydi" — bu xotira oldidagi qarz, sadoqat va asriy nafratning go‘zal va daxshatli rekviyemidir. Adib bu hikoyasi bilan o‘zbek nasrida psixologik tahlilning mutlaqo yangi, chuqur metaforik darajasini namoyish etib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazar Eshonqul. Maymun yetaklagan odam – T; Yangi nashr, 2019
2. Umurov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq me‘rosi nashriyoti,2004.
3. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati – T.: Akadernashr, 2010.
4. Sharafjon Sariyev. Adabiyot. Metodik qo‘llanma – Toshkent. 2019.
5. Qozoqboy Yo‘ldosh. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar.Maqola “Yoshlik” jurnali, 2014 yil, 9-son